

3/2024,
may-
iyun
(№ 00071)



MAMLAKATDA SOLIQ QARZDORLIGI VUJUDGA KELISHINI PROGNOZ QILISH YO‘LLARI

Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: ulajaha12@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-1902-1763>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i24

Annotatsiya

Mazkur maqolada soliq qarzdorligi vujudga kelishi prognoz qilingan tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliqlar va yig‘imlarni belgilangan muddatida to‘lash holatlari tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan uni samarali undirish amaliyotini yanada takomillashtirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq organi, soliq to‘lovchi, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliq madaniyati, soliqlar va yig‘imlar, soliq qarzdorligi, davlat.

СПОСОБЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В СТРАНЕ

Хакимов Улугбек Фуркат угли

Независимый исследователь Ташкентского Ташкентский международного университета Кимё. Доктор философии (PhD) по экономическим наукам.

Аннотация

В данной статье рассмотрен прогноз возникновения налоговой задолженности. Также были изучены мнения зарубежных экономистов относительно возникновения налоговой задолженности в стране. Проанализированы случаи своевременной уплаты юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями налогов и сборов. Изучены особенности взыскания налоговой задолженности в развитых странах. На основании вышеизложенных обстоятельств внесены предложения по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по дальнейшему совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

Ключевые слова: Налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоговая культура, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство.

WAYS FOR FORECASTING TAX LIABILITIES IN A COUNTRY

Khakimov Ulugbek

Independent researcher of Kimyo International University in Tashkent.

Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences.

Abstract

This article discusses the forecast for the occurrence of tax debt. The opinions of foreign economists regarding the occurrence of tax debt in the country were also studied. Cases of timely payment of taxes and fees by legal entities and individual entrepreneurs were analyzed. Specific features of tax debt recovery in developed countries have been studied. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

Key words: Tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, tax culture, taxes and fees, tax debt, state.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan asosiy iqtisodiy islohotlar tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatimizda qulay biznes va investitsiya muhitini yaratishga hamda shu bilan bir qatorda soliq sohasini ham keng isloh qilish qaratilgan. Xususan, soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida, mamlakatimizda soliq ma‘muriyatchiligini samarali tashkil etishda ushbu sohaning barcha jabhalarini raqamlashtirishga erishish hamda yillar davomida sinalgan ilg‘or xorij tajribalarini tatbiq etish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birgalikda, soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. [1] Shuningdek, respublikada “...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish” ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. [2] Mazkur vazifa ijrosini ta‘minlashda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzdorligini to‘lash muddatini kechiktirish imkoniyatini berish tartibini takomillashtirish, soliq yukini pasaytirish yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini uning mol-mulki hisobidan undirish tartibini soddalashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash hamda soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirish soliq organining eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mamlakatda soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlik summalari, ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim M. Orlovaning fikriga ko‘ra, «Soliq qarzdorligi tushunchasiga har xil manbalarda turli xil ta‘rif berilgan. Bugungi kunda soliq qarzdorligiga soliqlar va yig‘imlar, sug‘urta to‘lovlari hamda ular bo‘yicha hisoblangan foiz (penya)lar, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini buzganlik uchun qo‘llaniladigan moliyaviy jarimalar bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlar kiradi. Agar Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida keltirilgan normalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq qarzdorligi 2 guruhga bo‘linadi:

- joriy soliq qarzdorligi;
- soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan soliq qarzdorligi. [3]

Xorijlik olim Michael Brostek esa o‘z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi omillarini ko‘rsatib o‘tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;

- muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'ímlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobiy natijasini beradi. [4]

Mahalliy iqtisodchi olimlarimiz A. Tangriqulov va Sh. Toshmatovlar fikricha, soliq qarzlarning nazariy jihatdan vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- o'zaro moliya-xo'jalik munosabatlarida bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarning oshib ketishi;

- moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va bu faoliyatni noto'g'ri boshqarish;

- xo'jalik yurituvchi subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarga) sifati buyurtmachining yoki bozor talabiga javob bermasligi. [5]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlardan soliq qarzdorligi paydo bo'lishi sabablari va uni qisqartirish yo'llari to'g'risida tushunchaga ega bo'ldik. Albatta, har xil mamlakatlarda soliq qarzdorligi turli xil vaziyat va jarayonlarda vujudga kelishi mumkin. Chunki, har bir davlatda bir-biridan farq qiladigan o'ziga xos soliq siyosati yuritiladi. Bu yerda eng asosiysi soliq qarzdorligini paydo bo'lishini oldini olishda olib boriladigan chora-tadbirlarga e'tibor qaratilishi lozim. Misol uchun, Avstraliya davlatida avtomatlashtirilgan axborot tizimi (dasturiy mahsul) orqali mamlakatda soliq qarzdorligi prognoz qilib boriladi va bu ularga oldindan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliq qarzdorligini qisqartirishda kerakli chora-tadbirlar amalga oshirish imkoniyatini beradi. [6] Shundan kelib chiqib quyida ko'rsatilgan

1-jadvalning 2019-2022-yillardagi statistik ma'lumotlardan foydalangan holda respublikamizda 2023-yilda vujudga kelishi mumkin bo'lgan soliq qarzdorligi summasini prognoz (taxmin) qilishning eng kichik kvadratlar usuli va chiziqli bo'lmagan parabolik regressiya tenglamasi yordamida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Respublikamizdagi soliq to'lovchilarning soliq qarzdorligi [7]

X	Yillar	Soliq qarzdorligi summasi (mlrd. so'mda) (Y)
1	2019-y.	3 793,2
2	2020-y.	9 469,4
3	2021-y.	16 000,5
4	2022-y.	24 642,0

1-usul. Eng kichik kvadratlar usuli yordamida prognozlash. Kichik kvadratlar usuli yordamida izlanayotgan to'g'ri chiziqning Y o'qi bilan kesishish nuqtasi va X o'qi bilan hosil qilingan burchak tangensi uchun quyidagi formulalar yordamida topiladi:

$$b_1 = \frac{n \sum_{i=1}^n X_i Y_i - (\sum_{i=1}^n X_i)(\sum_{i=1}^n Y_i)}{n \sum_{i=1}^n X_i^2 - (\sum_{i=1}^n X_i)^2}; \quad (1)$$

$$b_0 = \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n} - b_1 \frac{\sum_{i=1}^n X_i}{n}, \quad (2)$$

bunda: n-tanlanma hajmi, X_i – i-qadamdagi kuzatish, Y_i – i-qadamdagi kuzatishning qiymati.

Shunday qilib, regressiya to‘g‘ri chiziq tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\bar{Y} = b_0 + b_1 X. \quad (3)$$

Ishonchlilik koeffitsiyenti esa,

$$R^2 = 1 - \frac{\sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y}_i)^2}{\sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})^2} \quad (4)$$

Formula bilan hisoblanadi. Bu yerda: Y_i – i-qadamdagi kuzatishning qiymati, \bar{Y}_i – i-qadamdagi (3) tenglamaning qabul qiladigan qiymati, \bar{Y} –Y-kuzatishlarning o‘rtacha qiymati, ya’ni:

$$\bar{Y} = \frac{\sum_{i=1}^n Y_i}{n}. \quad (5)$$

1-jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib, 2-jadvalni to‘ldirib olamiz.

2-jadval

\bar{Y}_i –Y-kuzatishlarning o‘rtacha qiymatini topish jadvali

i	X_i	Y_i	$X_i Y_i$	X_i^2
1	1	3 793,2	3 793,2	1
2	2	9 469,4	18 938,8	4
3	3	16 000,5	48 001,5	9
4	4	24 642,0	98 568	16
Yig‘indi	10	53 905,1	169 301,5	30

2-jadvaldagi ma’lumotlarni va n=4 (kuzatuvlar soni yoki tanlanma hajmi)ni (1) formulaga qo‘yilib, quyidagi qiymatlar topib olinadi:

$$b_1 = \frac{4 * 169 301,5 - 10 * 53 905,1}{4 * 30 - 10^2} = 6 907,75$$

$$b_0 = \frac{53 905,1}{4} - 6 907,75 * \frac{10}{4} = -3 793,1$$

Topilgan qiymatlarni (3) regressiya to‘g‘ri chiziq tenglamasiga olib kelib qo‘yiladi va $\bar{Y} = b_0 + b_1 X = -3 793,1 + 6 907,75x$ ko‘rinishidagi tenglama hosil qilinadi.

Regressiya to‘g‘ri chiziq tenglamasiga x=5 qiymati qo‘yiladi va y=30 745,7 soni hosil qilinadi. Demak, 1-usul natijasiga ko‘ra, respublikamizdagi soliq

to'lovchilarning 2023-yilda vujudga kelishi mumkin bo'lgan soliq qarzdorligi summasi **30 745,7 mlrd. so'm**ni tashkil etishini prognoz (taxmin) qilish mumkin.

Bu prognoz (taxmin)ning amalga oshish ehtimolligini esa (4) formuladan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun bizga 3-jadval ma'lumotlari kerak bo'ladi va uni to'ldirib olamiz.

3-jadval


Prognoz (taxmin)ning amalga oshish ehtimolligini topish

i	Y_i	\vec{Y}_i	$(Y_i - \vec{Y}_i)^2$	$(Y_i - \bar{Y})^2$
1	3 793,2	-3 793,1+6 907,75*1=3 114,65	460 430,1	726 437 256,25
2	9 469,4	-3 793,1+6 907,75*2=10 022,4	305 809,0	452 680 941,69
3	16 000,5	-3 793,1+6 907,75*3=16 930,15	864 249,12	217 420 923,04
4	24 642,0	-3 793,1+6 907,75*4=23 837,9	646 576,81	37 255 153,69
Yig'indi			2 277 065,03	1 433 794 274,7

3-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra,

$$R^2 = 1 - \frac{2\,277\,065,03}{1\,433\,794\,274,7} = 0,998411$$

Topilgan qiymatni foizga o'girsak, demak, respublikamizdagi soliq to'lovchilarning 2023-yilda vujudga kelishi mumkin bo'lgan soliq qarzdorligi summasi **30 745,7 mlrd. so'm**ni tashkil etishi **99,8 foiz** aniqlikda prognoz (taxmin) qilinmoqda.



1-rasm. Regressiya to'g'ri chizig'i, uning tenglamasi va ishonchlik koeffitsiyenti [8]

Shuningdek, «Microsoft excel» dasturida avtomatik ravishda tayyorlangan 1-rasm ma'lumotlaridan ham 1-usul natijalari to'g'ri ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin.

2-usul. Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya tenglamasi yordamida prognozlash.

Bu usulda izlanayotgan chiziqning tenglamasi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$\bar{Y} = b_0 + b_1x + b_2x^2 \quad (6)$$

(6) formuladagi koeffitsiyentlar quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini yechish orqali aniqlanadi:

$$\begin{cases} b_0 * n + b_1 * \sum_{i=1}^n x_i + b_2 * \sum_{i=1}^n x_i^2 = \sum_{i=1}^n y_i, \\ b_0 * \sum_{i=1}^n x_i + b_1 * \sum_{i=1}^n x_i^2 + b_2 * \sum_{i=1}^n x_i^3 = \sum_{i=1}^n x_i y_i, \\ b_0 * \sum_{i=1}^n x_i^2 + b_1 * \sum_{i=1}^n x_i^3 + b_2 * \sum_{i=1}^n x_i^4 = \sum_{i=1}^n x_i^2 y_i \end{cases} \quad (7)$$

Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya tenglamasining koeffitsiyentlarini topish uchun 2-jadvaldagi ma’lumotlarni quyidagi 4-jadvalga joylashtiramiz va kerakli qiymatlarni topib olamiz.

4-jadval

Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya tenglamasining koeffitsiyentlarini topish jadvali

<i>i</i>	x_i	y_i	$x_i y_i$	x_i^2	$x_i^2 y_i$	x_i^3	x_i^4
1	1	3 793,2	3 793,2	1	3 793,2	1	1
2	2	9 469,4	18 938,8	4	37 877,6	8	16
3	3	16 000,5	48 001,5	9	144 004,5	27	81
4	4	24 642,0	98 568	16	394 272,0	64	256
Yig‘indi	10	53 905,1	169 301,5	30	579 947,3	100	354

Topilgan qiymatlarni (7) tenglamalar sistemasiga qo‘yib, sistema yechilsa, quyidagi natijalarga erishiladi:

$$b_0 = 261\,578,875; \quad b_1 = -225\,952,265; \quad b_2 = 42\,237,075.$$


Topilgan koeffitsiyentlar (6) tenglamaga qo‘yilsa, tenglamaning ko‘rinishi ham topiladi:

$$\bar{Y} = 261\,578,875 + (-225\,952,265)x + 42\,237,075x^2$$

(4) formuladan ishonchlilik koeffitsiyenti $R^2 = 0,92411$ ekanligini aniqlaymiz.

Parabolik regressiya tenglamasiga $x=5$ qiymat qo‘yilib, $y=187\,744,4$ soni hosil qilinadi.

Bundan ko‘rinadiki, respublikamizdagi soliq to‘lovchilarning 2023-yilda soliqlardan **187 744,4 mlrd. so‘m** soliq qarzdorligi tashkil etishini prognoz (taxmin) qilinmoqda. Bu prognoz (taxmin)ning amalga oshish ehtimolligi (4) formuladan **92,4 foizga** teng bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi.



2-rasm. Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya tenglamasi, uning chizig‘i va ishonchlik koeffitsiyenti

Shuningdek, «Microsoft excel» dasturida avtomatik ravishda tayyorlangan 2-rasm ma’lumotlaridan 2-usul natijalari ham to’g’ri ishlab chiqilganligini ko’rishimiz mumkin.

Muallif fikricha, yuqorida 2 xil usulda qilingan prognozlar o’tgan yillardagi soliq qarzdorligi to’g’risidagi statistik ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan hamda bu kelgusida ham shunday o’sish sur’atlari davom etishini kafolatlamaydi. Mazkur prognozlash soliq organi tomonidan soliq qarzdorligini qisqartirish bo’yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqilmasa va bu borada hech qanday yangi ishlar amalga oshirilmasa ya’ni o’zgarishlar bo’lmasa haqiqatga yaqin taxmin natijalarini chiqarishi mumkin.

Trend modellari asosida har bir ko’rsatkich bo’yicha olingan prognoz (taxmin)lar barqaror o’sish tendensiyalarini ko’rsatish bilan birga ushbu sohadagi o’zaro bog’liqlik qonuniyatlarini ham izohlashga asos yaratib beradi:

5-jadval

Trend modellari asosida har bir ko’rsatkich bo’yicha olingan prognozlar barqaror o’sish tendensiyalarini bog’liqlik qonuniyatlari

.	Tenglamaning ko’rinishi	Ishonchlik koeffitsiyenti (foizda)	Kelgusi yildagi soliq qarzdorligi miqdori (mlrd. so’m)
To’g’ri chiziqli regressiya (1-usul)	$\vec{Y} = -3\ 793,1 + 6\ 907,75x$	$R^2 = 99,8$	30 745,7
Chiziqli bo‘lmagan parabolik regressiya (2-usul)	$\vec{Y} = 261\ 578,875 + (-225\ 952,265)x + 42\ 237,075x^2$	$R^2 = 92,4$	187 744,4

Topilgan miqdorlardan ko‘rinib turibdiki, 1-usulda **30 745,7 mlrd. so‘m** soliq qarzdorligi vujudga kelishi prognoz (taxmin) qilinayotgan bo‘lsa, 2-usulda **187 744,4 mlrd. so‘m** soliq qarzdorligi paydo bo‘lishi prognoz (taxmin) qilinmoqda. 1 va 2-rasmlarda hosil qilingan tenglamalar grafiklarini solishtiradigan bo‘lsak, 1-rasm rasmdagi grafik 3-jadvalda berilgan miqdorlarga mos qiymatlarning ko‘proq qismini o‘zida mujassamlashtirgan. Shunga ko‘ra, 1-rasmdagi ma‘lumot haqiqatga yaqin hisoblanadi. Bundan tashqari, 1-usuldagi miqdorni prognoz qilish deyarli 100 foizlik ishonchlik koeffitsiyentni bermoqda.

Demak, 1-usul bo‘yicha hisoblab topilgan miqdorni 2023-yilda prognoz (taxmin) qilish maqsadga muvofiq bo‘lar ekan. [8]

Xulosa

Yuqoridagi qayd etilganlardan kelib chiqib quyida beriladigan takliflar kelgusida soliq sohasini yanada rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi:

- Avstraliya davlati singari soliq qarzdorligini prognoz qilish amaliyotni joriy etish kelgusida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan soliq qarzdorligini oldini olishda lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi;

- soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini (ishonchini) oshirishda soliq tushumlarini “onlayn” kuzatish imkoniyatini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

3. Orlova M.E., Nasyrova V.I. and Salmina S.V. Tax debt and ways of reducing it. // 3C TIC. Cuadernos de desarrollo aplicados a las TIC. – 2019.

4. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office.-2009. P-27.

5. Tangriqulov A, Xomma A, Toshmatov Sh, Norqo‘ziev I, Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanmasi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti – 2010.(51-b).

6. <https://www.ato.gov> - sayt ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

8. U.F. Hakimov. Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati 2023-yil.